

THE HUMAN FACTOR IN THE WORKS OF ABU NASR AL-FARABI

Tilovov Qorjov

Lecturer, Department of History Termez State Pedagogical Institute

+998919023600

Abstract

This article analyzes the views of the great thinker Abu Nasr al-Farabi on the human factor based on his philosophical, socio-political, and ethical teachings. The study examines the concepts presented in al-Farabi's works such as *The Virtuous City*, *On the Attainment of Happiness*, and *On the Meanings of Intellect*, focusing on the role of human beings in society, the ideal of the perfect person, the significance of knowledge and enlightenment, and issues of moral perfection. Furthermore, the article explores the thinker's assessment of human beings as the principal driving force of social development and analyzes the role of knowledgeable and virtuous individuals in state governance and social life. The study also highlights al-Farabi's views on intellectual and spiritual development, the paths to achieving happiness, and the importance of forming a virtuous society. The article scientifically substantiates the humanitarian ideas of al-Farabi and their theoretical as well as practical significance for the development of contemporary society.

Keywords

Abu Nasr al-Farabi, human factor, perfect person, virtuous society, *The Virtuous City*, knowledge and enlightenment, moral perfection, intellect, philosophy, state governance, humanism, happiness, spirituality, social development, Eastern Renaissance.

Abu Nosir forobiyning asarlarida inson omili

Termiz davlat pedagogika instituti

Tarix kafedrasi o'qituvchisi

Tilovov Qorjov

+998919023600

Annotatsiya. Mazkur maqolada buyuk mutafakkir Abu Nosir Forobiyning inson omiliga doir qarashlari uning falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy ta'limoti asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Forobiyning "Fozil odamlar shahri", "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Aql ma'nolari haqida" kabi asarlarida ilgari surilgan insonning jamiyatdagi o'rni, komil inson g'oyasi, ilm-ma'rifatning ahamiyati hamda axloqiy kamolot masalalari yoritilgan. Shuningdek, mutafakkirning insonni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida baholashi, davlat boshqaruvi va ijtimoiy hayotda bilimli hamda fazilatli insonlarning tutgan o'rni tahlil etilgan. Forobiy ta'limotida insonning aqliy va ma'naviy rivojlanishi, baxt-saodatga erishish yo'llari hamda fozil jamiyatni shakllantirishdagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada allomaning insonparvarlik g'oyalari va ularning bugungi jamiyat taraqqiyotidagi nazariy hamda amaliy ahamiyati ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: Abu Nosir Forobiy, inson omili, komil inson, fozil jamiyat, fozil odamlar shahri, ilm-ma'rifat, axloqiy kamolot, aql, falsafa, davlat boshqaruvi, insonparvarlik, baxt-saodat, ma'naviyat, ijtimoiy taraqqiyot, Sharq uyg'onish davri.

Abu Nosir Forobiy Sharq uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri sifatida inson, jamiyat va davlat masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Uning falsafiy merosida inson omili markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Forobiy insonni tabiatning eng mukammal mavjudoti, aql va tafakkur sohibi sifatida talqin qiladi. Mutafakkirning fikricha, insonning asosiy maqsadi baxt-saodatga erishish bo'lib, bu maqsadga ilm-ma'rifat, axloqiy kamolot va jamiyatdagi faol ishtirok orqali erishiladi.

Forobiyning "Fozil odamlar shahri" ("Al-Madina al-fodila") asarida inson omili masalasi keng yoritilgan. Asarda jamiyatning taraqqiyoti va davlatning ravnaqi avvalo insonlarning ma'naviy va axloqiy kamolotiga bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Olimning

fikricha, har qanday jamiyatning muvaffaqiyati uning a'zolari qanday fazilatlarga ega ekanligi bilan belgilanadi. Agar jamiyat a'zolari ilmi, adolatli va ezgu maqsadlar yo'lida faoliyat yuritsalar, bunday jamiyat fozil jamiyatga aylanadi.

Forobiy insonni ijtimoiy mavjudot sifatida tavsiflaydi. Uning ta'kidlashicha, inson yolg'iz holda mukammallikka erisha olmaydi, chunki uning ehtiyojlari va manfaatlari boshqa insonlar bilan hamkorlik qilishni talab etadi. Shu sababli odamlar birlashib jamiyatni tashkil etadilar. Jamiyatning shakllanishi va rivojlanishida inson omili hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mutafakkirning fikricha, insonlarning o'zaro hamkorligi va birdamligi jamiyat taraqqiyotining asosiy omilidir.

Forobiy ilm-fan va ta'limni inson kamolotining muhim vositasi deb hisoblaydi. Uning qarashlariga ko'ra, bilim insonni jaholatdan qutqaradi, unga to'g'ri yo'lni ko'rsatadi va jamiyatdagi o'rnini belgilashga yordam beradi. Shu sababli Forobiy ilmi insonlarni jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholaydi. U ilm-fan rivojlanmagan jamiyatda taraqqiyot bo'lmasligini alohida ta'kidlaydi.

Mutafakkir insonning axloqiy fazilatlariga ham katta e'tibor qaratgan. Uning fikricha, adolat, halollik, saxovat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik va mehr-oqibat kabi fazilatlar insonni komillikka yetaklaydi. Forobiy nafaqat ilmi, balki yuksak axloq egasi bo'lgan insonni mukammal shaxs sifatida ko'radi. Chunki ilm axloq bilan uyg'unlashgandagina jamiyat manfaatlariga xizmat qilishi mumkin.

Forobiy asarlarida davlat boshqaruvi va inson omili o'rtasidagi bog'liqlik ham chuqur tahlil qilingan. "Fozil odamlar shahri" asarida davlat rahbari yuksak bilim va axloq sohibi bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi. Mutafakkir ideal hukmdorda donolik, adolatparvarlik, jasorat, rostgo'ylik va xalq manfaatlariga xizmat qilish kabi sifatlar mujassam bo'lishi zarurligini qayd etadi. Uning fikricha, rahbarning shaxsiy fazilatlari butun jamiyat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi.

Forobiy insonning ruhiy va aqliy kamoloti masalasiga ham katta e'tibor bergan. U inson aqlini eng oliy ne'mat deb biladi. Mutafakkir aql orqali inson yaxshilik va yomonlikni ajrata olishini, o'z faoliyatini ongli ravishda boshqarishini ta'kidlaydi. Shuning uchun ham insonning ma'naviy va intellektual rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida ko'riladi.

Forobiyning "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Aql ma'nolari haqida", "Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to'g'risida" kabi asarlarida ham insonning jamiyatdagi o'rnini va vazifalari haqida qimmatli fikrlar bayon etilgan. U inson hayotining mazmunini ezgulik yaratish, ilm olish va boshqalarga foyda keltirish bilan bog'laydi. Mutafakkir nazarida haqiqiy baxt moddiy boyliklarda emas, balki ma'naviy yetuklik va ilm-ma'rifatda namoyon bo'ladi.

Forobiy qarashlarida inson huquqlari va qadr-qimmatini masalalari ham muhim o'rin tutadi. Garchi u zamonaviy inson huquqlari nazariyasini yaratmagan bo'lsa-da, insonni ulug'lash, uning aql-zakovati va imkoniyatlarini yuksak baholash orqali insonparvarlik g'oyalarini ilgari surgan. Bu jihatdan uning qarashlari Sharq falsafasida inson omilini o'rganishning muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Abu Nosir Forobiy insonni jamiyatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi, davlat taraqqiyotining negizi va ma'naviy kamolotning bosh subyekti sifatida baholaydi. Uning asarlarida ilgari surilgan insonparvarlik, ilm-ma'rifat, adolat va komil inson haqidagi g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan. Shu sababli Forobiy merosi nafaqat falsafa tarixida, balki zamonaviy jamiyat taraqqiyoti va inson kapitalini rivojlantirish masalalarida ham muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Forobiy ta'limotida inson omili faqat alohida shaxs bilan cheklanmaydi, balki jamiyat va davlat taraqqiyotining bosh mezoni sifatida namoyon bo'ladi. Mutafakkirning fikricha, jamiyatning kuch-qudrati uning tabiiy boyliklari yoki harbiy salohiyatida emas, balki insonlarning bilim darajasi, ma'naviyati va axloqiy fazilatlarida

namoyon bo‘ladi. Shu bois Forobiy ilmi, tafakkuri yuksak va ezgulik yo‘lida faoliyat yurituvchi insonlarni har qanday taraqqiyotning asosiy omili deb hisoblaydi. Bu g‘oyalar bugungi kunda inson kapitali, ma’naviy taraqqiyot va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyalari bilan hamohang bo‘lib, mutafakkir merosining zamonaviy ahamiyatini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
2. Forobiy Abu Nasr. Baxt-saodatga erishuv haqida. – Toshkent: Yozuvchi, 1994.
3. Forobiy Abu Nasr. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. – Toshkent: Ma’naviyat, 2001.
4. Forobiy Abu Nasr. Aql ma’nolari haqida. – Toshkent: Sharq, 2004.
5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
6. Irisov A. Abu Nasr Forobiy va uning falsafiy merosi. – Toshkent: Fan, 1975.